



**G‘AZNAVIYLAR VA SALJUQIY TURKLAR DAVLATIDA
BOSHQARUV TIZIMIDAGI O‘XSHASHLIKlar VA FARQLI
JIHATLARNING TAHLILI**

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti, 2-kurs talabasi

Xolmirzayeva Mushtariybegim Ergash qizi

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Xudoynazarov Isobek

Annotatsiya: Ko‘hna tarix o‘z qarida juda ko‘plab davlatlarni qamrab oldi. Bu davlatlar ma’lum bir davr davomida vujudga keldi, yuksaldi, taraqqiy etdi va parchalanib, tamomila yo‘q bo‘lib ketdi. Ba’zilarining o‘rnida esa yangi davlatlar paydo bo‘ldi. Tarixchi olimlar esa ushbu davlatlarning yuzaga kelishidan to tanazzulga yuz tutganigacha bo‘lgan davrni aniqroq va mukammalroq o‘rganishni va siz-u bizga o‘rgatish, tadqiq etishdek ma’suliyatli vazifani o‘z zimmasiga oladi. Quyidagi maqolada shu kabi tarix sahnasida o‘chmas iz qoldirgan, dolzarbligi va ahamiyati jihatidan aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda ham ko‘plab qirralari ochilmagan, juda ko‘p qismlari mavhumligicha qolgan ikki buyuk davlat — Saljuqiy turklar va G‘aznaviylar davlati haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Ushbu maqolada asosiy e’tibor ikki davlatning boshqaruv tizimidagi o‘xshashliklar va tafovutlarni taqqoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Dewan, Siyosatnoma, Nizamulmulk, amir, rais, G‘azna, Malikshah, Kobul, Qilich Arslon, dargah, sulton, hojib.

Abstract: Ancient history has covered many countries. These states came into existence during a certain period of time, rose, developed, and disintegrated, completely disappearing. New states appeared in place of some of them. Historians take on the responsibility of researching and teaching the period from the creation of these countries to their decline. This article focuses on two great states — the Seljuk Turks and the Ghaznavid state, which still have many aspects not fully uncovered.



The main focus of this article is on identifying the similarities and differences in the governance of these two countries.

Key words: Dewan, Siyasetnama, Nizamulmulk, amir, rais, Ghazna, Malikshah, Kabul, Kilich Arslan, dargah, sultan, hajib

Аннотация: Древняя история охватила многие страны. Эти государства возникли в течение определённого периода времени, развились, распались и полностью исчезли. На месте некоторых из них появились новые государства. Историки берут на себя ответственность за преподавание и исследование периода от создания этих стран до их упадка. В статье рассматриваются два великих государства — сельджуки турки и Газневиды, оставившие неизгладимый след на исторической арене. Многие аспекты их существования остаются нераскрытыми даже сегодня, и в статье представлены важные сведения о них. Основное внимание уделяется выявлению сходств и различий в управлении двумя странами.

Ключевые слова: Политика, Диван, Низамулмульк, Амир, Председатель, Газна, Маликишах, Кабул, Килич Арслан, даргах, султан, хаджиб.

Tarix sahnasida o'chmas iz qoldirgan Somoniylar davlati tanazzulga yuz tutgandan keyin, turk hojiblaridan iborat bo'lgan saroy qo'shining nufuzi yanada oshib bordi. Ma'lumki, Somoniylar davlatida harbiylarga bo'lgan e'tibor nihoyatda kuchli bo'lgan. Turkiy sarkardalarning mavqeい nihoyatda yuqori bo'lib, ularga xizmatlari evaziga hojib ul-hujob, hojib ul-buzruk singari oliy mansablarga tayinlab, ularga hatto ayrim viloyatlarni boshqarish huquqini ham bergenlar. 962-963-yillarda G'azna viloyatini boshqargan Alptegin ham ko'zga ko'ringan nufuzli turkiy amirlardan edi. U G'azna va Kobul viloyatlarini mustaqil idora qilishga intilib, keyinchalik G'aznaviyalar davlatiga asos soldi. G'aznaviyarda sulton davlat boshqaruvi ustidan mutlaq nazoratga ega bo'lib, "xudoning yerdagi soyasi" hisoblangan. Hukmdor saroyi Eron an'analari asosida tashkil etilgan. Saroydag'i yig'ilishlarda Sulton o'zining shaxsiy qo'riqchilar (g'ulom-i Saroy) bilan o'ralgan oltin taxtga o'tirardi. Saroyda qat'iy protokol qoidalari qo'llanilib, sultonning xalq



bilan bevosita aloqasining oldi olingan¹. G‘aznaviy larning saroy tashkiloti tarkibiga boshqa musulmon-turk davlatlaridan ham mansab dor shaxslar kirtilgan. G‘aznaviy lar davlati boshqaruva tartibining murakkabligi bilan ajralib turadi. Boshqaruva tartibining boshida dargoh va devon (vazirliklar) turgan. Devon tashkiloti ijroiya hokimiyat bo‘lib, o‘sha davr manbalariga ko‘ra 5 ta devon nomi uchraydi. Bular: bosh vazir devoni, hariy ishlar devoni, harbiy ishlar devoni, elchilik va boshqa rasmiy tadbirlarni yuritish devoni, moliya devoni, xat-xabar devoni. Sudyalar sud binosida sud ishlarini olib borishgan. Har bir shaharda qozi, har bir davlatda bir qozi bor edi. Davlat boshqaruvida ayollar alohida mavqega ega edilar. Sudyalar o‘z vazifalarini halol bajarishlari uchun ularga yuqori maosh to‘lab berilgan. Sulton Mahmud odil sudlovni tashkil etishga katta ahamiyat berib, ilmi va halolligi bilan nom qozongan muftiy va huquqshunoslar orasidan qozilarni tanlagan. G‘aznaviy larda hukmdorning o‘zi Devon-i Mezolimga rahbarlik qilgan. Bu yerda Sulton xalqning shikoyatini eshitib, qaror qabul qildi. Har bir amirlikda davlat tashkilotining uchta muhim bo‘limi mavjud edi. Ularning ichida fuqarolik idorasi boshlig‘i “sohib-i devon” deb atalgan; sohib-i devon esa, viloyatdagi qo‘shining ehtiyojlarini qondirish bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari, viloyatda lashkarboshi (salor, sipohsalor), amin, kutvol va sohib-i buzruk kabi amaldorlar ham bor edi. Eng asosiysi, G‘aznaviy lar davlatida boshqaruva tartibi azaldan rivojlanib kelayotgan turkiy davlatchilik asosida qurilgan edi. Ayni vaqtida, bu davlatda mahkamachilik xususiyatiga ega bo‘lgan boshqaruva tizimi ham mavjudligi bilan ajralib turadi. G‘aznaviy lar davlatida sulton faqat boshqaruva zamzi bo‘lmasdani, davlat tizimlarining ishlashi unga bog‘liq bo‘lgan. Bosh vazir barcha imtiyozlarga ega bo‘lishga qaramasdan, u sultonga bo‘ysungan. Bayhaqiy va Gardiziy asarlarida yozilishicha, hukmdor va shahzodalar uchum “amir” va “sulton” unvoni qo‘llanilgan. Bu hukmdorlikning ma’naviy alomatlaridan sanalgan. G‘aznaviy lar davrida vazirlik idorasi eng muhim ma’muriy organ edi². Bosh vazir sultondan keyingi ikkinchi shaxs bo‘lsa ham, amalda u

¹ Nizomulmulk. “Siyosatnoma”. — T.: Yoshlar matbuoti, 2022.

² Ziyo Azamat. “Uzbek davlatchilik tarixi”. — T.: Shark, 2000.



imperiyani boshqarishga mas'ul edi. Buning sababi, sultonlar harbiy yurishlarda, safarlarda ko'p vaqtini o'tkazgani bo'lgan. G'aznaviylar davlatida idoraviy tashkilot uch qismga bo'lingan. Bular: 1) Markaziy tashkilot 2) Viloyat tashkilotlari 3) Tuman tashkilotlari. G'aznaviylar davrida eng muhim vazirliklar quyidagilar bo'lgan: 1. Devoni Vuzarot: g'aznaviylar davlatidagi idora tashkiloti bo'lib, uni vazir boshqargan . Sultondan keyingi ikkinchi lavozim vazir bo'lib, vazirni lavozimiga sultonning o'zi tayinlagan³. Vazirning yana bir lavozimi, u qo'shinga qo'mondonlik qila olar edi. Xususan, Ma'sud davrida vazir bo'lgan Ahmad Abdulsamad 1035-yilda sultonning topshirig'iga ko'ra Balh va Toxaristonda chiqqan isyonni bostirish uchun yuborilgan. Vazir ushbu topshiriqni muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazgan . Bayhaqiyning so'zlariga ko'ra, vazir shaxsan urushda qatnashmagan, uning vazifasi qo'shinni boshqarish, hududlardagi isvonni boshqarish, osoyishni ta'minlab, o'sha hududga yangi hokim tayinlash bo'lgan. Vazir sultonga uning safarlarida va harbiy yurishlarida hamrohlik qilgan. Faqat sulton Hindistonga yurishida unining vakili sifatida Xurosonda qolgan. Boshqa vaziyatlarda esa bu vazifa shahzodalarga qoldirilgan. Vazir saroyda sultondan keyin farmon chiqarish huquqiga ega bo'lgan. 2. Devoni arz: armiyaning barcha ishlari bu devon zimmasida edi. Bu devonning vazifasi qo'shinda tartib-qoidalarini o'rnatish, statistik ma'lumotlarni tayyorlash, qo'shindagi shaxslarni ro'yxatga olish va qo'shinga maosh to'lashdan iborat edi, G'aznaviylar harbiy jihatdan qudratli bo'lgan va doimiy ravishda boshqa davlatlarga harbiy safarlar uyuştirgan. Demak, bu devon g'aznaviylar sultanatida eng muhim devonlardan biri bo'lgan. Bu imperiyadagi harbiy kuchning asosini sultonga sodiq bo'lgan mahalliy va xorijiy professional harbiy qullar tashkil etgan. Qo'shindagi eng yuqori lavozim "hojib" hisoblangan. Bu devonning boshlig'i sohibi devon-i arz hisoblangan. U sulton tarafidan tayinlanagan. U Hukmdorlarning bundan tashqari, shaxsiy unvonlari ham bo'lgan Xususan, Sobuqteginning "Muin ud-davla" unvoni bo'lgan⁴. Mahmud Xuroson sipohsolori bo'lgan paytda, somoniylar hukmdorlar tomonidan unga "Sayfuddavla" unvoni berilgan. Saljuqiylar Davlati O'rta Osiyoning

³ Bosworth, Clifford Edmund. The Ghaznavid and Ghurid Empires. Edinburgh University Press, 1963

⁴ . Sagdullayev A. "O'zbekiston tarixi". I qism. — T.: Fan, 2018.



tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir davlatdir. U XI-XII asrlarda Markaziy va G‘arbiy Osiyo hukmronligini qo‘lga kiritgan edi. Bu davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ko‘plab ma’lumotlar tarixiy manbalarda saqlanib qolgan. Turk Saljuqiylar davlatida ma’muriy ishlar Buyuk Kengashda (Devon-i Saltanat) muhokama qilingan. Bundan tashqari, kengash qoshida quyidagi kengashlar tashkil etilgan: “Devon-i Istifa” (moliyaviy ishlar bilan shug‘ullanuvchi), “Devon-i Arz” (qo‘shining maoshi, kiyim-kechak, oziq-ovqat va jihozlari masalalari bilan shug‘ullanuvchi), "Devon-i Ishraf" (barcha ishlar bo‘yicha tekshiruv va nazorat qilish bilan shug‘ullanuvchi), “Devon-i Insho” (ichki va tashqi yozishmalar bilan shug‘ullanadi), “Niyobat-i Saltanat” (hukmdor poytaxtda bo‘lmaganda davlat ishlari bilan shug‘ullanadi), “Parvonachi Devoni” kabi devonlar mavjud edi. Turk-islam davlatlarida ilgari tashkil etilgan davlat xizmatchilari lavozimlari xuddi shu tarzda davom ettirildi. Vizantiya imperiyasi va armanlar chegaralaridagi “yakuniy” deb atalgan hududlarni beklar boshqargan. Margravorlar chegaralarni qo‘riqlab, sulton yurishga chiqqanda uning yonida turishardi. Saljuqiylar mis, kumush va oltin tangalar zarb qilganlar. Tangalarda sultonlarning suratlari tez-tez uchragan. Birinchi tanga Masud I tomonidan zarb qilingan, birinchi oltin tanga esa Qilich Arslon II tomonidan zarb qilingan. Turklarning O‘rta Osiyodan olib kelgan yig‘ilish an’anasi (Qurultoy) bo‘lsa-da, Eron-Islom an’anasi davlat tashkilotiga ta’sir ko‘rsatib, turklar hayotiga ko‘plab tuzilmalar, ayniqsa Devon tashkiloti kirib kelgan. Kengash tashkiloti: Turk-islam davlatlarida davlat ishlari muhokama qilinadigan va qaror qabul qilinadigan organ Kengash deb atalgan. Ular bugungi Vazirlar Kengashi (hukumat) vazifalarini bajaradilar. Kengash qarorlarida so‘nggi so‘z hukmdorga tegishli edi. Shu sababdan ham kengash hukmdorlarning "Maslahat majlisi" sifatida ta’riflangan. Saljuqiylar sultonligi nisbatan qisqa vaqt ichida musulmon fors davlatlaridek davlat tizimini barpo etdi. Ulug‘ sulton forsiy mulozimlarga va turkiy qullardan chiqqan beklar rahbarligidagi ola-qura qo‘shinga tayanardi. Saljuqiylar dastlab Kaspiy va Orol dengizining shimal tomonlarida istiqomat qilgan o‘g‘uz turkiy xalqining tarkibiga kirgan Qiniquр ug‘ining sardorlari bo‘lganlar. X asrda ular islamni qabul qilgach, musulmon dunyosining hududiga, birinchi navbatda, Xorazm va Movarounnahrga



kira boshladilar⁵. Saljuqiylar ham ko‘pgina barbariy xalqlar singari o‘zga joylarga kirib boraver ganlar, binobarin, bir-biri bilan jang qiluvchi mahalliy davlatlarning xizmatiga yordamchi mufruzalar sifatida yollanib tirikchilik qilar edilar. Saljuqiylar davlati tepasida oliv hukmdor - sulton (sulton ula’zam) turgan. Uning nomidan xutba o‘qilib, tanga zarb etilgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida o‘tgan. Mulk, yer-suv taqsimlash, muhim davlat va boshqaruvin mansablariga tayinlash, amaldorlar ishini nazorat qilish va boshqa sultonning vakolatlar doirasiga kirgan. Saljuqiylarning boshqaruvin tizimi somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylarniki singari ikkiga: dargoh va devonlarga bo‘lingan. Ulug‘ hojib, horis amiri (amiri horis), saloxdor, xos vakil, alamdar, jondor, tashtor, sarhang, miroxur dargohdagi asosiy lavozimlar sanalgan. Bosh vazir Devon-i A’lo markaziy boshqaruvin tepasida turgan. Devoni tug‘ro, Devon-i Istifo (moliya devoni), Devon-i Ishraf (nazorat devoni), Devon-i Arz (harbiy vazirlig) kabi rasmiy devonlar bo‘lgan. Viloyat boshliklari (voliylar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lishgan. Voliylar sulton tomonidan tayinlangan bo‘lib, ular viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralariga rahbarlik qilgan. Tuman va shahar miqyosidagi boshqaruvin tizimi ham deyarli shunday bo‘lgan. Saljuqiylar davlatida, ayniqsa, Buyuk Saljuqiylardan To‘g‘rulbek, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta ko‘tarilish yuz bergen. Bu davrda ilm-fan, san’at va savdo sohalarida muhim yutuqlar amalga oshirilgan, masalan, madaniy va ilmiy markazlar, universitetlar tashkil etilgan, yangi savdo yo‘llari ochilgan. Hunarmandchilik taraqqiyoti: to‘qimachilik, kulollik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, ko‘nchilik va gilam to‘qish rivojlangan. Buyuk ipak yo‘li ulkan sultanatning markaziy shaharlari orqali o‘tgan. Sharqiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy mamlakatlari bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan. Malikshoh Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini boj to‘lovidan ozod qilgan. Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft mahsulotlari keltirilgan. Ichki savdo ham rivojlangan.

⁵ Bosworth, Clifford Edmund. The Political and Dynastic History of the Iranian World (A.D. 1000-1217). Cambridge University Press, 1968.



Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) joriy etilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham bo‘lgan. Bu ham o‘z navbatida mamlakatda boshqaruv tartibining nihoyatda kuchli ekanidan, qolaversa, savdo-sotiq masalalarining taraqqiy etganiga yaqqol misoldir. “Siyosatnoma” asari Nizomulmulk tomonidan 1092-1093 yillarda yozilgan bo‘lib, o‘rta asr davlat boshqaruvi va siyosatining nazariy asoslari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ushbu asar orqali Saljuqiylar davlatining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, rahbariyati, davlat boshqaruv tizimi, jamoat hayoti, sof davlatchilik masalalari va, jumladan, talabalar tayyorlash tizimi haqida buyuk ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, har ikkala o‘rta asrlar davlatlarida ham davlat boshqaruvida devon tizimi yuksak o‘rin tutgan. Bu davrda devonlarning bir necha turlari bo‘lib, ular turli soha boshqaruviga asoslangan. U davrdagi devon tizimini hozirgi vazirlik boshqaruviga bemalol qiyoslash mumkin. Biroq, G‘aznaviyalar tizimi Saljuqiylardagi devon tizimidan birmuncha farq qiladi. Farqni asosan quyidagi tomonlarda ko‘rishimiz mumkin. Saljuqiy turklarda devon tizimi asosan kengashlarni tashkil qilgan. Ushbu kengashda turli beklar o‘z takliflari bilan chiqqanlar, biroq yakuniy qarorni hukmdor — ya’ni sulton qabul qilgan. Shuningdek, Saljuqiylarda G‘aznaviylargacha qaraganda devon turlari ko‘proq edi. Bu devonlardagi beklar hukmdor saroyda bo‘lmagan vaqtida mamlakatni boshqarish huquqiga ham ega edi. Bu ham bo‘lsa harbiylarga bo‘lgan e‘tiborning yuksakligidan dalolat beradi. Ayni shu jihatni G‘aznaviyalar davlatida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu ikkala sulolada davlat boshqaruvining uyg‘un jihatlaridan biridir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Nizomulmulk. “Siyosatnoma”. — T.: Yoshlar matbuoti, 2022.
2. Ziyo Azamat. “Uzbek davlatchilik tarixi”. — T.: Shark, 2000.
3. Sagdullayev A. “O‘zbekiston tarixi”. I qism. — T.: Fan, 2018.
4. Bosworth, Clifford Edmund. The Political and Dynastic History of the Iranian World (A.D. 1000-1217). Cambridge University Press, 1968.
5. Bosworth, Clifford Edmund. The Ghaznavid and Ghurid Empires. Edinburgh University Press, 1963.